

NOGIRONLIGI BO'LGAN BO'LGAN SHAXSLAR DAVLAT MUHOFAZASIDA

Siddiqova Durdona Mirziyodovna

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7193108>

Annotatsiya: Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarga beriladigan imtiyozlar haqida muhokama qilinadi

Kalit so'zlar: soliq imtiyoz, nogironlik, chegirma, kodeks, muayyan guruh, muhofaza

Nogironlar aholining zaif toifasi, shuning uchun ular davlat tomonidan turli xil qo'llab-quvvatlash choralariga muhtoj. Shu sababli, ular har xil yordamga ishonishlari mumkin, bu oylik nafaqa olish, turli imtiyozlar yoki boshqa imtiyozlarni olishdan iborat. Nogironlar uchun soliq imtiyozlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek yurtboshimiz, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan, 2021- yil 21 dekabr kuni "**Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**"gi qarorni imzoladi. Ushbu qarorda ham nogironligi bo'lgan shaxslarga bir qancha imtiyozlar berilganini ko'rishimiz mumkin va albatta shu bitta mana shu qaror orqali ham yurtimizda nogironligi bo'lgan shaxslarga davlatimiz tomonidan nechog'lik sharoit hamda imkoniyatlar yaratilayotganini bilishimiz mumkin.

Qat'iy belgilangan soliq stavkasi to'lovchisi I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxs hisoblanganida faoliyat turidan va uni amalga oshirish joyidan qat'i nazar, oyiga qat'iy belgilangan miqdordagi soliqning 50 foizini, biroq BHMning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda to'laydi.

Urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar mulkida bo'lgan mol-mulk soliq solishdan ozod etiladi

I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar mulkida bo'lgan mol-mulk 60 kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilinadi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi

Urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar hamda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar er solig'idan ozod etiladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun OTMda davlat granti asosida qo'shimcha qabul kvotasi ajratiladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning avtotransport vositalari uchun ajratilgan to'xtab turish joylaridan foydalanganlik uchun haq olinmaydi.

I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga DXM va (yoki) YaIDXP orqali xizmat ko'rsatishda 50 foiz miqdorida chegirma qo'llaniladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar jamoat birlashmalari ramzlarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish uchun davlat boji undirilmaydi.

Nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalar, 18 yoshdan katta bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga nafaqa tayinlashda davlat xizmatlari bepul ko'rsatiladi.

I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning bolalarini davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga qabul qilishda imtiyozli ro'yxatga kiritilgan.

Tegishli tibbiy xulosa asosida muhtoj shaxslarga protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari beriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar sanatoriy-kurortda bepul sog'lomlashtirish huquqiga ega. Nogironligi bo'lgan shaxslar ayrim mahsulotlar bilan bepul ta'minlanadi. I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning mulkida bo'lgan mol-mulk 60 kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilinadi. Mehmonxonalarda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun alohida sharoitga ega xona tashkil etiladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak yurtimizda yildan yilga nogironligi bo'lgan shaxslarga e'tibor hamda rag'bat ortib bormoqda. Xulosa qilib aytganda aytganda bularning barchasi inson qadri uchun.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Soliq.uz
2. https://www.unicef.org/uzbekistan/media/3621/file/Brief_PWD_SitAn_UZB.pdf